


## AYOL IJODKORLARNING ASARLARIDA SHARQ AYOLI QISMATI



Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna

Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Annotation:** Ushbu maqolada Suriya-Livan adibasi G'ada as-Samman va o'zbek adibasi Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida inson taqdiri, xususan, Sharq ayoli qismati va uning ruhiyatiga ta'siri masalasi haqida fikr yuritilgan. Jumladan, ikki millat adibalari ijodidagi "Derazadan mo'ralardi tong", "Yozsiz yil", "Kuygan shahar", Sammanning "Oxirgi qush qo'riqchilari", "Yolg'izlik qurban" kabi asarlarda ayol obrazining mushtaraklik jihatlari topib tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ayol ijodkor, sharq ayoli, mushtaraklik, ta'sir, ruhiy kechinma, ona, kechinma, ichki iztirob.

**Аннотация:** в этой статье рассматривается вопрос о судьбе человека, в частности, о роли Восточной женщины и ее влиянии на психику, в рассказах сирийско-ливанского мудреца гада ас-Саммана и узбекского мудреца Зульфии Оружбай кызы. В частности, в таких произведениях, как "рассвет у окна", "год без лета", "сгоревший город", "последние птичники" Саммана, "жертва одиночества" в творчестве мудрецов двух наций нашли и проанализировали общие черты женского образа.

**Ключевые слова:** женщина-создатель, восточная женщина, общность, влияние, духовное прощение, мать, прощение, внутреннее страдание.

**Annotation:** In this article, the stories of the Syrian-Lebanese writer Ghada as-Samman and the Uzbek writer Zulfiya Gunboy's daughter reflect on the question of the fate of a person, in particular, on the part of an Eastern woman and its influence on the psyche. In particular, such works as "dawn through the window", "Year Without Summer", "Burnt City", "the last bird keepers" by Samman, "the victim of loneliness" in the work of writers of two nationalities were analyzed, finding common aspects of the female image.

**Key words:** female creator, Oriental woman, commonality, influence, spiritual forgiveness, mother, forgiveness, inner anguish.

Suriya-Livan adibasi G'ada as-Samman (1942) va o'zbek adibasi Zulfiya Qurolboy qizi (1966) hikoyalarida inson taqdiri, xususan, Sharq ayoli qismati va uning ruhiyatiga ta'siri masalasi doimo yetakchi o'rinni egallagan, ikki millat adibalari ijodidagi mushtaraklik ham aynan shu jihatda namoyon bo'ladi. G'ada as-Sammanning "Derazadan mo'ralardi tong" [1;45] hamda Zulfiya Qurolboy qizining "Yozsiz yil", "Kuygan shahar" [2;67] hikoyalari "Ayol" obrazni va uning ruhiyati tasviri masalasiga bag'ishlangan bo'lsa, G'ada as-Sammanning "Oxirgi qush qo'riqchilari" hamda Zulfiya Qurolboy qizining "Yolg'izlik qurboni" hikoyalarida befarzand ayol qismati va uning alamli ruhiy kechinmalarini talqin etilgan. "Derazadan mo'ralardi tong" hikoyasida mehribon va jonkuyar serfarzand ona obrazni gavdalantirilgan bo'lib, hikoya syujeti "ona" obrazining turmush o'rtog'i va farzandlari o'rtasidagi munosabatlari asosiga qurilgan. Qahramonlar ichki dunyosi, ruhiy holatini ochib berishda yozuvchi portret, o'xshatish va ichki monologdan unumli foydalangan. Yozuvchi bosh qahramon bilan bog'liq lavhalarda uning psixologik portretini yaratish ekan, ayol qalbining nozik tuyg'ularini ona mehri yengib chiqqanini mahorat bilan ifodalaydi – ayol turmush o'rtog'ini qanchalar yaxshi ko'rmasin, farzandlariga bo'lgan mehrini hamda ona va bola munosabatlarini oilada birinchi o'ringa qo'yadi. To'ng'ich farzandi Mazenning go'daklik chog'ida vafot etishi uning keyingi farzandlari oldidagi mas'uliyatini yanada kuchaytiradi: ona o'zidan kechib, borlig'ini farzandlariga bag'ishlaydi, go'daklarini bir zum bo'lsa-da, yolg'iz qoldirishga qo'rqadi, turmush o'rtog'ining ta'na-dashnomalariga sabr bilan chidaydi, bu dunyoni farzandlarisiz tasavvur qilolmaydigan Ona – har tongni farzandlari uxlaydigan xonadagi "qomatining izi tushib qolgan" kursida qarshilaydi. Oiladagi bu vaziyat sababli turmush o'rtog'i bilan munosabatlarida ziddiyatlar paydo bo'ladi, hayolida muhabbat va shavqqa to'la yoshlik damlariga qaytib, sevikli yori bilan "o'sha havorang ko'yakda" go'zal qiyofada ishq bog'larida sayr qiladi, bu xotiralar va farzandlari orasidagi mas'uliyat uni yanada qattiq psixologik holatga soladi – ayol depressiyaga tushib qoladi, turmush

o'rtog'ini qattiq rashk qiladigan, asabiy va vahimaga beriluvchan bo'lib qoladi. Adiba G'ada as-Samman esa o'z hikoyalarda o'tkir psixologik holatga tushgan ayollar obraziga ko'p murojaat qilarkan, uning qahramon ayollari har qanday og'ir hayotiy muammolar girdobida o'zligini saqlab qoladi. "Derazadan mo'ralardi tong" hikoya bosh qahramoni ham o'zidagi kuchli ruhiy holatni yengib chiqishga kuch topa oladi, farzandlari, turmush o'rtog'i va o'zini, hayotini sevishni davom etadi. Shunga uyg'un tasvirni o'zbek adibalari ijodida ham kuzatamiz – o'zbek adibasi Zulfiya Qurolboy qizining "Yozsiz yil", "Kuygan shahar" [3;32] hikoyalari ham "ayol" obrazi va uning ruhiyati tasviri masalasiga bag'ishlangan bo'lib, "Yozsiz yil" hikoyasidagi Buvgul xola obrazida kasalmand o'g'liga jonini fido qilgan ona timsoli hamda "Kuygan shahar" hikoyasidagi kampir obrazi orqali farzand dog'ida aqldan ozgan ona timsoli gavdalantirilgan. Atoqli adabiyotshunos olim Umarali Normatov Zulfiya Qurolboy qizi ijodiga baho berarkan, "Zulfiyaning bir vaqtlar tanqidchilikda mensimay qaraladigan, uncha xush ko'rilmaydigan, ijtimoiylikdan xoli sof "ko'ngil mayllari nag'malari" talqini adabiy tajribalari yo'lidan borib yaratgan qator hikoyalari, ayniqsa, "Yozsiz yil" o'zining badiiy-ma'naviy ta'sir kuchi jihatidan sof ijtimoiy yo'nalishdagi yetuk asarlardan aslo qolishmaydi" [4;90] deb ta'kidlaydi. "Yozsiz yil" hikoyasi syujeti mukammal ishlangan bo'lib, voqealar rivoji personajlar ruhiy-emotsional holati tahlili bilan uyg'unlikda tasvirlangan. Onaning avtofalokat sababli kasalmand bo'lib qolgan o'g'liga bo'lган o'zgacha mehri asar davomida ko'plab uchraydigan tig'iz vaziyatlarda mahorat bilan aks ettirilgan. Hikoya qahramoni Sobir avtofalokat sabab nogiron bo'lib qolgan. Bu nogironlikning azobini o'g'lidan ko'ra ko'proq. Sog'lom tug'ilib, ayni balog'at yoshiga yetgan farzandining bir umrga kasalmand, nogiron bo'lib qolishi va Mashrab qismatiga yo'liqishidan qattiq ruhiy iztirob chekayotgan Onaning iztiroblari va matonati hikoyanavis tomonidan mahorat bilan tasvirlangan. Nogiron o'g'lining qishloqning eng suluv qizi Marvaridla bir-biriga ko'ngil qo'yishi, ularning beg'ubor, sof muhabbatlari va bu muhabbatning oqibatini oldindan ko'ra bilish Ona iztiroblarini yanada kuchaytiradi. Buvgul xola o'g'lining xohishiga ko'ra, Marvaridning uyiga sovchilikka borishga o'zida kuch topa oladi, ammo Sobirning kasalidan xabardor bo'lган Marvaridning otasi Buvgul xola va uning nogiron o'g'lini kamsitib, haqoratli

so'zlar bilan rad javobini beradi. Bu muhabbat rishtasiga Marvaridning otasi bilan birga Sobirning akasi – Buvgul xolaning katta o'g'li Mamatqul ham qarshi bo'ladi. Yolg'izgina Buvgul xola o'g'lining "aybi"ni bilsa-da, uni seviklisi Marvarid bilan birga bo'lishi uchun bor kuchi bilan kurashadi. Ammo Marvaridning otasi yaqin bir qarindoshiga majburlab uzatildi. Qiz qaytib keladi, uni ikkinchi marta majburlab qishloqdan tashqariga – qirga uzatadilar. Sobir kasal jonini ayamay qish chillasida qirga borib, Marvaridni topadi, ma'shuqasidan qaytib kelish va'dasini olib, uyga keladi. Sobir va Buvgul xola ko'ksida umidsizlik bir dam chekinib, yashash ishtiyoqi jo'sh uradi. Ammo bu holat uzoq davom etmaydi. Marvarid yangi yil kechasi qaytishga so'z bergandi, lekin va'dasini bajarolmaydi. Sobir qattiq iztirob chekadi. Barcha voqelikni ko'rib turgan ona – Buvgul xolaning ayni damdagi iztiroblari, ruhiy holati, uning vujudini yondirgan otash, xasta o'g'il ko'ngli, oromi deb chekkan zahmatlari alangasi tafti adiba Zulfiya Qurolboy qizi tomonidan mahorat bilan bayon etilgan va o'quvchi bu o'tkir psixologik holatni har doim sezib, his etib turadi.

Yuqorida keltirilgan voqealar tafsilotini hikoyanavis psixologik tahlil orqali mohirona tasvirlab, ichki monolog, (psixologik) portret, o'xshatish, gallyutsinatsiya va boshqa tahliliy vositalar yordamida o'quvchiga yanada ta'sirchan qilib yetkazadi. Hikoya nihoyasida nogiron o'g'il hayot va muhabbat uchun bo'lgan uzoq kurashlardan so'ng, jon taslim qiladi, onaizorning ustunga suyanganicha "Men yomon qoldim, sen yaxshi bor, bolam" degan so'zlarni duoday ojizona takrorlab oshiq o'g'lini so'nggi yo'lga kuzatadi. Hikoya Buvgul xolaning osmonga qarab "Odamni ermak uchun yaratib, uni eplay olmay qolganingdan keyin o'limni o'ylab topdingmi?" [5;654] deya savdoiyarcha shivirlab aytgan jumlesi bilan yakunlanadi. Bir qarashda bu jumla shakkoklik va taqdir hukmiga bo'lgan isyon kabi tuyuladi, ammo aslida bu – ona qalbidagi farzandiga bo'lgan ilohiy mehrning so'nggi – yakuniy tasdig'i kabi yangraydi. Mazkur "Yozsiz yil" hikoyasini o'zining badiiy-ma'naviy ta'sir kuchi jihatidan sof ijtimoiy yo'nalishdagi yetuk asarlar safiga kiritish mumkin va undagi Buvgul xola obrazini o'zbek adabiyotidagi yangi uslubdagi obraz deb atash mumkin. Muallif ona sha'nini himoya qilish va ulug'lashdek mo'tabar mavzuni yanada teran va

ko'lamdorroq yoritgan, onaning ruhiyati va mehrini muazzam, mungli mehr-muhabbat qo'shig'i tarzida bayon etgan.

Zulfiya Qurolboy qizining yana bir ijod mahsuli – “Kuygan shahar” hikoyasi ham ona ruhiyati talqini masalasiga bag’ishlangan bo’lib, unda farzand dog’ida aqldan ozgan ona obrazi gavdalantirilgan. Hikoya bosh qahramonining ismi muallif tomonidan tilga olinmaydi, shunchaki Kampir deya e’tirof etiladi. Voqealar tasviri Kampirning portreti hamda uning bozorda choy va qahva sotib tirikchilik qilishi tafsilotlari bilan boshlanadi va o’quvchiga uning tashqi ko’rinishi va xatti-harakatlarini bayon qilish orqali ruhiyatiga ilk chizgilar beriladi: “Kampir yetmishlarga borgan, cho’pday ozg’in, iyagi ertaklardagi yalmog’iz kampirning iyagiday oldga turtib chiqqan, lablari hayotning sho’rish azoblarini tatib ko’raverganidan tirishib-burishib qolganday so’lg’in va quruq, burni so’ppaygan, kirtaygan ko’zlari chuqur botgan – ma’yus boqar, ammo jahli chiqqanida nafaqat ko’zlari xunukdan-xunuk chaqchayar, balki butun yuzida qo’rqinchli ifoda paydo bo’lardi, qoqsuyak gavdasi esa xiyol egik, lekin juda serharakat, chaqqon, kiyimlari esa hamisha toza va ohorli edi”[6;432]

Hikoya avvalida bosh qahramon haqida o’quvchida paydo bo’lgan ilk tasavvur yozuvchi tomonidan asta-sekinlik bilan o’zgartirib boriladi – Kampirning ruhiy azoblari dunyosiga o’quvchi sezmay kirib qoladi va uning barcha alamlari va dardlarini his qila oladigan darajada batafsil va to’liq tanishtiriladi. “Yo’q, u telba emasdi. Uning xotirasi inqirozga uchragan, necha yillardan buyon ko’rlik dunyosidan ham battarroq bir zulmat ichida, olamdagи o’zgarishlardan bexabar, na kechaning, na bugunning farqiga bormasdan, yolg’iz, hattoki yolg’izdan-yolg’iz, hududsiz zulmat ichida yashardi”. [7;907] O’sha joyda – xuddi halokatga uchragan vaqtning bir parchasiday qotib qolgandi, yoshi bir yerga borgan, ro’zg’orning barcha tashvishlaridan qutilgan bo’lsa-da, hamon ilgariday, ya’ni oilaning butun tashvishlari o’z gardanida bo’lgan vaqlardagiday kuyib-pishib yurar, holdan toyib yotib qolguncha bozordan beri kelmas, xuddi bitta to’g’ri chiziq bo’ylab tinimsiz borib-kelayotganday yashar, keljak esa nazarida juda uzoqda, hech yetib bo’lmaydiganday tuyulardi: “...jismi kundan kun qurib-qovjirab borar, go’yo tiriklayin murdaga aylangandi, ammo bir kun bozorga chiqmasa farzandlari och qoladiganday mudom qo’rqib yashardi, vaholanki, o’zi

qo'rqqan dahshatli narsa allaqachon yuz bergenini, u bozorda yurganida uyi yonib ketganini, qizi bilan kichik o'g'li olov ichida qolib, nobud bo'lganini eslay olmasdi.

Xullas, kampirning xotirasida na o'tmish bor, na kelajak.... faqat bugunni – bir lahzalik umrni yashab qolish bilan cheklanardi. Bu dunyoda azoblar va achchiq haqiqatlaridan panoh izlab, aqlidan, xotirasidan kechgan ayolning dardi va bu ruhiy azoblarining sabablari muallif nutqidan qahramonning ichki dunyosini his qilgan holda o'ta ta'sirchan va mungli bayon etiladi. Kampirning xayolida hayotining faqat eng og'ir damlari – yigirma yil muqaddam, bozorda choy sotib tirikchilik qilib o'tkazgan davri ko'z o'ngida gavdalandi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Номатов У. Қалбаги беназир зиё. 2010 йил.45-В
2. <http://зиёуз.уз/озбек-насри/зулфия-қуролбой-қизи/> зул фия-қуролбой-қизи-куйган-шахар-ҳикоя/
3. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. Darslik. –T., “Yangi nashr”, 2010. 208-bet.
4. M. Qo'shjonov. Saylanma. Ikki jiddlik. Birinchi jild. Adabiyy portretlar. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982. 296-297-betlar.
5. I. G'afurov. Mangu latofat. Badiyalar, risolalar. 2-kitob. – Toshkent, “Sharq”, 2008. 247-bet.
6. U.Hamdam. Yangilanish ehtiyoji. –Toshkent, “Fan”, 2007. 15-bet.
7. [diss.natlib.uz](http://diss.natlib.uz)
8. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)
9. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)

Rustamov Ilkhom Tursunovich. (2022). LINGUISTIC AND CULTURAL ASPECTS OF LITERARY TRANSLATION AND TRANSLATION SKILLS. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 10, 168–173. Retrieved from <https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/158>

Rustamov, I. (2022). Илхом TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(4).

Rustamov, I. (2022). Ilhom THE INTERLEVEL ANALYSIS OF VERBAL HUMOUR RESOURCES IN THE ENGLISH LANGUAGE: THE INTERLEVEL ANALYSIS OF VERBAL HUMOUR RESOURCES IN THE ENGLISH LANGUAGE. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(4).

Rustamov, I. (2022). ilhom МИЛЛИЙ ЛАТИФАЛАРНИНГ СТЕРОТИПИК ТАЛҚИНИ: МИЛЛИЙ ЛАТИФАЛАРНИНГ СТЕРОТИПИК ТАЛҚИНИ. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(4).

Rustamov Ilkhom Tursunovich. (2022). ON THE CONCEPTUAL METAPHOR: MAN IS UP, WOMAN IS DOWN. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies, 1(2), 28–31. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/326>

Tursunovich, R. I. (2022, November). THE SIGNIFICANCE OF PRAGMATIC APPROPRIATENESS IN ESL CULTURE. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 1, No. 2, pp. 157-160).

Rustamov, I. T., & Nargiza, Y. (2022). Study of Alisher Navoi Works in Europe. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 1021-1023.

Rustamov, I. (2022). Ingliz tilida ta'na-dashnom tushunchalarni bildiruvchi leksik birliklarning semantik maydoni. *Scienceweb academic papers collection*.

Rustamov, I. (2020). Ethnic stereotypes in anecdotes. *International Journal of Scientific and Technology Research*, 9(3), 622-623. Retrieved from <https://www.scopus.com/results/authorNamesList.uri?st1=rustamov&st2=ilhom&origin=searchauthorlookup>

Tursunovich, R. I. (2022). Teaching a Foreign Language and Developing Language Competence. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 1(8), 8-11.

Ataboyev Isroiljon Mirza o'g'li. (2022). RESPONDING TO A SPEECH REPROACH. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 10, 161–167. Retrieved from <https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/157>

Ataboyev, I. (2022). fazilatturganova05@gmail.com SEMANTIK MAYDONNI TASHKIL ETUVCHI UNSURLAR ORTASIDAGI ALOQA TURLARI: SEMANTIK MAYDONNI TASHKIL ETUVCHI UNSURLAR ORTASIDAGI ALOQA TURLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(4).

Turg'unova, F. R. (2022). THE TITLE OF THE ARTICLE IN ENGLISH AS THE SUBJECT OF RESEARCH. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 10, 174-177.